


“TASDIQLAYMAN”  
O‘zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi

Axborot texnologiyalari markazi  
Direktori

I.K. Djumaniyazov

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 yil



**Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari markazi xodimlari uchun  
ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha  
sug‘urtalovchini aniqlash yuzasidan**

### XARID HUJJATLARI

**Buyurtmachi:** O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
Axborot texnologiyalari markazi

Toshkent - 2022

**MUNDARIJA:**

- I. Tanlov ishtirokchilariga quyiladigan umumiyl talablar;
- II. Tanloving ma'lumotlar qismi;
- III. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar (*1-5 shakllar*).

## I.TANLOV ISHTIROKCHILARIGA QO‘YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

### 1. UMUMIY MA’LUMOTLAR.

1.1. Mazkur tanlov hujjati, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-sentabrdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 472-son Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Buyurtmachi- Moliya vazirligining “Axborot texnologiyalari markazi” Davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi).

Manzil: Toshkent sh. Sh.Rashidov shox ko‘chasi 16, tel.: (71) 202-07-12.

1.3. Xarid komissiyasi ishchi organi - Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari markazi

Manzil: Toshkent sh. Sh.Rashidov shox ko‘chasi 16, tel. : (71) 202-07-12.

1.4. Tanlov predmetining nomi - Xodimlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha sug‘urtalovchini aniqlash.

1.5. Tanlovning boshlang‘ich narxi (sug‘urta mukofoti):

Sug‘urta mukofoti miqdori 600 000 000,0 so‘mni tashkil qiladi. Moliyalashtirish manbai – Buyurtmachining o‘z mablag‘lari.

1.6. Elektron tanlov o‘tkaziladigan operatorning nomi va uning veb-saytiga havola: O‘zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi - [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz)

1.7. Tanlash elektron shaklda o‘tkaziladi.

1.8. Loyihani amalga oshirish uchun rejalashtirilgan muddat - 12 oy.

1.9. Tanlovda belgilangan shartlarni bajargan, xarid hujjati talab va mezonlariga muvofiq bo‘lgan va tanlash asosida sotib olinadigan xizmatlarning tegishli xajmlarini taqdim etish bo‘yicha **ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan** sug‘urta tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda ishtirokchi) qatnashishlari mumkin.

### 2. TANLOV HUJJATLARINING TARKIBI.

2.1. Ushbu tanlov hujjatlari tanlov ishtirokchisi uchun umumiyl talablar, saralash qismi, texnik qism, narx qismi, shartnomalar loyihasidan iborat.

2.2 Malakaviy hujjatlari ilovalarga muvofiq 1-5 shakllar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, unda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish lozim:

- Sug‘urtaning tegishli turlari bo‘yicha sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining vakolatli davlat organi tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo‘lishi;
- "AAA-" darajasidan past bo‘lman milliy reytingga ega bo‘lishi;
- "B+" darajasidan past bo‘lman xalqaro reytingga ega bo‘lishi;
- Tibbiy sug‘urta shartnomasi tuzishda kamida 15 yillik tajribaga ega bo‘lishi;
- O‘zining shaxsiy tibbiy va texnik yordam ko‘rsatuvchi assistans xizmatiga ega bo‘lishi.
- Tibbiy sug‘urta shartnomasi tuzilgan taqdirda majburiyatlarning bajarilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday ish yuritish yoki da‘vo hujjatlari yo‘q bo‘lishi lozim.

2.3. Ilovalar quyidagi qo‘srimcha shakllardan iborat bo‘ladi:

1-Shakl. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza.

2-Shakl. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiyl ma’lumot.

3-Shakl. Kafolat xati.

4-Shakl. Ishtirokchining moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot.

5-Shakl. Shu kabi xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha kamida 8 yillik ish tajribasiga ega bo‘lish.

Ilovalar ro‘yxati:

1-Ilova. Taklifga texnik muvofiqlik jadvali.

2-Ilova. Xizmat ko‘rsatish uchun narx taklifi.

2.4. Texnik talablar ushbu hujjatning texnik qismida ko‘rsatilgan barcha fikrlarga mos kelishi kerak.

2.5. Tanlov hujjatlarining narx qismi 1-ilovaga muvofiq tuziladi.

2.6. Shartnomalar ilovada ko‘rsatilgan loyiha asosida tuzilgan. Shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq talqin qilinadi.

### **3. TANLOV ISHTIROKCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

3.1. Tanlov ishtirokchilariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni talab darajasida bajarish (Buyurtmachi bilan ish tajribasi bo‘lgan holda);
- Tanlov ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida bo‘lmashligi;
- Tanlov ishtirokchisi Buyurtmachi bilan sud jarayonida bo‘lmashligi;
- Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud bo‘lmashligi;
- Ishtirokchilarning ta’sischilari bir xil yuridik yoki jismoniy shaxslar bo‘lmashligi yoki boshqa har qanday affilanganlik holatlari bo‘lmashligi;
- ushbu hujjatning 1-ilovasida keltirilgan qolgan barcha talab va mezonlarga muvofiq bo‘lish.

Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

a) maxsus axborot portalida joylashtirilgan xarid hujjatining elektron shaklini yuklab oladi va o‘rganib chiqadi;

b) mazkur xarid xujjati talablari asosida o‘z taklifini taqdim etadi;

v) [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) platformasiga e’londa belgilangan 2,5 foiz miqdorda zakalat ko‘rinishida o‘z taklifi ta’minotining kafolatini taqdim etadi. Ushbu zakalat summasi mazkur platforma shartlariga muvofiq ishtirokchiga qaytarib beriladi.

3.1. Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi tanlash taklifi bilan birgalikda ushbu xarid hujjatining 1-ilovasida keltirilgan hujjatlarini elektron shaklda taqdim etadi.

3.2. Tanlovda ushbu bobda ko‘zda tutilgan talablarga javob bermaydigan tashkilot va korxonalar tanlovda ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.3. Mazkur bobda ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilishi va qo‘yilgan talablarga mos kelishi shart. Tanlash ishtirokchisi ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim qilmagan va qo‘yilgan talablarga mos kelmagan taqdirda, xarid komissiyasi uni tanlovda ishtirok etishdan chetlashtirish huquqiga ega.

3.4. Tanlov ishtirokchisi O‘zbekiston Respublikasining amaldaqi qonunchiligiga muvofiq tanlov doirasida berilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgardir.

### **4. TAKLIFLARNI RASMIYLASHTIRISH, QABUL QILISH, BAHOLASH TARTIBI VA KO‘RIB CHIQISH MUDDATLARI**

4.1. Takliflar maxsus axborot portalida elektron shaklda taqdim etiladi.

4.2. Taklif doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar davlat tilida rasmiylashtirilishi, boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar esa davlat tiliga tarjima qilinish lozim. Bu holda tarjima qilingan hujjat haqiqiy deb hisoblanadi.

Barcha hujjatlar ishtirokchi tomonidan tayinlangan vakolatli shaxsning imzosi va muhri bilan taqdim etilishi tavsiya etiladi.

4.3. Taklifning amal qilish muddati takliflarni qabul qilinishi tugagan kundan boshlab kamida 20 kun bo‘lishi kerak.

4.4. Takliflarni qabul qilish muddati va vaqt: takliflar [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) elektron platformasida joylashtirilgan e’lonida belgilangan muddatgacha elektron ko‘rinishda taqdim etiladi.

4.5. Takliflar 1-ilovada keltirilgan mezonlarga muvofiq hamda ishtirokchining taklifiga asosan baholanadi. Xarid hujjati mezonlari talablarini bajargan eng yuqori ball taklifini taqdim etgan ishtirokchi [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) platformasida g‘olib deb topiladi. Takliflar mezonlarga muvofiqligini chuqur o‘rganish maqsadida xarid komissiyasi ekspert guruhini tuzishga haqli.

4.6. Baholash jarayonida mahalliy ishtirokchilarga [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) portalida belgilangan miqdorida preferentsiyalar qo‘llaniladi.

4.7. Taklif hujjatlari to‘liq bo‘lmasa yoki xarid hujjati talablariga muvofiq bo‘lmasa xarid komissiyasi ishtirokchini tanlashdan chetlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilishi mumkin.

4.8. Xarid komissiyasining qarori bilan taklifda va xarid hujjatida ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyin eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi tanlovning zaxira g‘olibi deb e’lon qilinishi mumkin.

4.9. Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflarni qabul qilish muddati tugagan sanadan boshlab qonunchilikda belgilangan muddatda amalgalash oshiriladi.

4.10. Bayonna maʼlumotlarning natijalariga ko‘ra avtomatik ravishda [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) elektron portal orqali e’lon qilinadi. Agar taklif bergan ishtirokchilar soni kamida bitta bo‘lsa, yoki saralash tanlov

natijasidan bir dona ishtirokchi o'tsa tanlov [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) elektron portal orqali avtomatik ravishda amalga oshirilmagan deb e'lon qilinadi.

4.11. Xarid komissiyasi bayoni tasdiqlanib, 2 ish kuni muhokamaga qo'yilganidan so'ng tanlov g'olib 10 kalendar kuni mobaynida Buyurtmachi bilan shartnomalar imzolaydi.

4.12. Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda, xarid komissiyasi bu haqida tanlash ishtirokchisiga xabar berib, taklifini rad etishga yoki taklifini keyingi ko'rib chiqish shartlarini belgilashga xaqlidir.

4.13. Quyidagi hollarda Tanlov o'tkazilmagan deb topilishi mumkin:

- a) Tanlovda faqat bitta ishtirokchi ishtirok etsa yoki umuman takliflar taqdim etilmasa;
- b) takliflarni ko'rib chiqish natijasida barcha takliflar chetlashtirilsa;
- v) barcha takliflarda talab etilgan xujjatlar taqdim etilmasa.

4.14. Xarid komissiyasi va Buyurtmachi tanlov ishtirokchilarining tanlovda qatnashish bilan bog'liq xarajatlari uchun moddiy javobgar emaslar.

## **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA XUQUQLARI**

5.1. Tanlov ishtirokchisi:

- a) o'zi taqdim etgan ma'lumotlar va xujjatlarning haqqoniyligi va ishonchliligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikiga muvofiq javobgar bo'ladi;
- b) faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
- v) takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish huquqiga ega.

5.2. Buyurtmachi ishtirokchini Tanlovdan quyidagi hollarda chetlashtirish huquqiga ega:

- a) ishtirokchi bevosita yoki bilvosita Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining amaldagi yoki sobiq xodimigaish natijalariga ta'sir qilish, qaror qabul qilish maqsadida har qanday shaklda mukofot, ish taklifi yoki boshqa qiymat yoki xizmatlarni taklif qilganda;
- b) ishtirokchi qonunchilikga zid ravishda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lganda;
- v) ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda.

5.3. Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

5.4. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif aktseptiga qadar istalgan vaqtida tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Bu holda Buyurtmachi tanlash bekor qilinganligi to'g'risida asoslangan sabablarini maxsus axborot portalida joylashtiradi.

## **6. SHARTNOMA TUZISH.**

6.1. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlov g'olib deb e'lon qilingan tanlov ishtirokchisi buyurtmachidan xabar oladi.

6.2. Buyurtmachi va tanlov g'olib o'rtasidagi shartnomalar ushbu tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

6.3. Tanlov g'olib shartnomani ikki nusxada imzolashi va rasmiylashtirishi hamda xabarnoma olingan kundan boshlab 3 kalendar kuni ichida uni buyurtmachiga qaytarishi shart. Shartnomalar tomonlarning kelishuviga ko'ra O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mda tuziladi.

6.4. Shartnomalar loyihasi dastlabki hisoblanadi, shartlar tomonlarning kelishuviga binoan tanlov shartlariga zid bo'lmagan qismlariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

6.5. G'olib tomonidan shartnomani o'z vaqtida imzolanmaganligi shartnomani tuzishdan bosh tortish sifatida baholanishi mumkin. Bunda navbatdagi (zaxira – baholashda ikkinchi o'rinn) ishtirokchining maqbul taklifi ko'rib chiqiladi.

## **7. YAKUNIY QOIDALAR**

- 7.1. Tanlov takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi va maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.
- 7.2. Tanlov quyidagi hollarda xarid komissiyasi tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:
  - a) takliflarni topshirishning oxirgi muddati tugagunga qadar takliflar kelib tushmaganda;
  - b) tanlovda ishtirok etish uchun ikki nafardan kam ishtirokchining taklifi kiritilsa;
  - v) tanlov taklifida talab qilingan lekin ishtirokchi taqdim etgan barcha hujjatlar to'plami etarli bo'lmagan hollarda.
- 7.3. Agar tanlov o'tkazilmagan bo'lsa, buyurtmachi yana bir xil shartlar va bir xil mezonlar va talablar bilan xarid qilish tartibini o'tkazishga haqli.
- 7.4. Tanlovga doir nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

## II. TANLOVNING MA'LUMOTLAR QISMI

Ushbu jadval ma'lumotlari tanlov predmetiga taalluqli va tanlov hujjatlarining boshqa bo'limlari ma'lumotlari yoki talablarini to'ldiradigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

<b>№</b>	<b>Tanlov ma'lumotlari</b>	<b>Tanlov ma'lumotlarining tafsifi</b>
1	Buyurtmachi	Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari markazi
2	Xarid qilish mavzusi	Moliyavazirligi Axborot texnologiyalari markazi xodimlari uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash
3	Tanlov raqami	www.etender.uzex.uz da ko'rsatiladi
4	Tanlov o'tkazish shakli	elektron shaklda
5	Tanlov o'tkaziladigan joy	www.etender.uzex.uz
6	Tanlov hujjatlarini qabul qilish joyi	www.etender.uzex.uz
7	Tanlovda ishtirok etish uchun e'lon joylashtiriladigan manzil	Toshkent sh. Sh.Rashidov shox ko'chasi 16
8	Ishtirokchilar tanlovda qatnashish huquqiga ega	Tanlovda taklif etilgan shartlar bo'yicha ishtirok etish istagini bildirgan yuridik shaxslar
9	Litsenziya	Litsenziyalangan ish turi
10	Taklif topshirishning so'nggi muddati	Tanlov to'g'risidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtirilgan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida
11	Ishtirokchilarning tanlov hujjatlari bo'yicha tushuntirishlar olish uchun ariza berish muddati	Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati tugashidan 3 kun oldin
12	Tanlov hujjatlarining tili	O'zbekiston Respublikasi Davlat tilida
13	Taklifning amal qilish muddati	Takliflarni taqdim etish muddati tugagan kundan boshlab 30 kungacha
14	Takliflarni qabul qilish joyi, vaqt va soati	Xarid portaliga joylashtiriladi va e'lon qilinadi
15	Tanlov takliflarini ochish, takliflarni ko'rib chiqish va baholash buyurtmachining quyidagi manzili bo'yicha amalga oshiriladi	Toshkent sh. Sh.Rashidov shox ko'chasi 16
16	Taklifni baholash muddati	Takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati 10 ish kunidan oshmasligi kerak
17	Buyurtmachi tomonidan ko'rsatiladigan xizmat uchun to'lanadigan narhning miqdori	Buyurtmachining o'z mablag'lari
18	Buyurtmachiga xizmat ko'rsatishning belgilangan muddati	12 oy
19	Moliyalashtirish manbaasi	O'z mablag'lari hisobidan
20	To'lov shartlari	Shartnomaga asosan
21	Shartnomaga valyutasi	So'm
22	Shartnomaga tili	O'zbek tili va Rus tilida
23	Qo'shimcha ma'lumotlar	So'rovga asosan
24	Qo'shimcha talablar	Taklif etilayotgan ITS dasturida ishtirok etuvchi tibbiy tashkilotlar va dorixonalar ro'yxati
25	Tanlov muddati	www.etender.uzex.uz da e'lon qilinadi

### **III. TANLOV ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN TAQDIM ETILADIGAN MA'LUMOTLAR**

**1-shakl**

#### **ISHTIROKCHINING RASMIY BLANKIDA**

Nº \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasiga**

#### **TALABNOMA**

Tender hujjatlarini (*xarid ob'ektining nomini ko'rsating, yozma so'rovlar bo'lganda so'rovlar raqamlarini va ularga javoblarni ko'rsating*) o'rganib chiqib, biz ushbu orqali quyida imzolab, (Tanlov ishtirokchisining nomi), tender hujjatlariga muvofiq Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari markazi xodimlari uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatini ko'rsatish bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha tenderda ishtirok etishni tasdiqlaymiz.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboramiz:

1. \_\_\_\_ varaqda malakaviy hujjatlar (*varaqlar sonini ko'rsatish, risolalar, bukletlar va boshqalar taqdim etilgan taqdirda miqdorini ko'rsatish*);
2. Taklifning texnik qismi;
3. Taklifning narx qismi;
4. Boshqa hujjatlar (*boshqa hujjatlar taqdim etilganda, varaqlarning nomi va soni ko'rsatilishi shart*).

Tender taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning F.I.O va imzosi:

Aloqa telefoni/faks:\_\_\_\_\_

E-mail manzili:\_\_\_\_\_

Muxr joyi

## ISHTIROKCHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

### 1. TASHKILOT HAQIDA

1	Yuridik shaxsning yuridik shaklini ko'rsatgan holda to'liq nomi	
2	Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olingan sana, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa telefoni, elektron pochta	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Asosiy faoliyatyo'nalishi	

*Eslatma: Ushbu jadvalda ishtirokchi barcha kerakli ma'lumotlarni ko'rsatadi, xususan: to'liq ism, aloqa ma'lumotlari, faoliyat turi va boshqalar.*

### 2. LITSENZIYA HAQIDAGI MA'LUMOT VA DAVLAT RO'YXATIDAN O'TGANLIK HAQIDA GUVOHNOMA

Tanlov ishtirokchisi rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_ M.O'.

Tayyorlangan sana: «\_\_\_\_» 2022

### 3. SUG'URTA POLISI BO'YICHA XIZMAT KO'RSATGAN TIBBIYOT TASHKILOTLARI VA DORIHONALAR RO'YXATI.

Tanlov ishtirokchisi rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_ M.O'.

Tayyorlangan sana: «\_\_\_\_» 2022

**ISHTIROKCHINING RASMIY BLANKIDA**

Nº \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasiga**

**KAFOLAT XATI**

Ushbu bilan biz \_\_\_\_\_ kompaniyasi:  
(Kopmaniya nomi)

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emasligini;
- buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik sudi orqali muhokama holatida emasligini;
- amalda tuzilgan shartnomalar bo'yicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlar mavjud emasligini tasdiqlaymiz.

Imzolar:

Rahbarning F.I.O \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter F.I.O \_\_\_\_\_

Yuriskonsult F.I.O \_\_\_\_\_

**ISHTIROKCHINING MOLIYAVIY HOLATI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT**

(ishtirokchining nomi)

**1. MOLIYAVIY MA’LUMOTLAR***so ‘m*

Nomi	So‘nggi uch yildagi ma’lumotlar		
	2020 y.	2021 y.	2022 y. I-yarim yillik
<b>Balans ma’lumotlari asosida</b>			
Aktivlar			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar			
Nomoddiy aktivlar			
Uzoq muddatli investitsiyalar			
Shu jumladan: kapital qo‘yilmalar			
II. Joriy aktivlar			
Debitorlar			
Pul mablag'lari			
Passivlar			
I. O‘z mablag‘lari manbalari			
ustav kapitali			
Taqsimlanmagan foyda			
II. Majburiyatlar			
uzoq muddatli majburiyatlar			
Joriy majburiyatlar			
Shu jumladan			
joriy kreditorlik qarzları			
muddati o‘tgan kreditorlik qarzları			
Moliyaviy natijalar hisoboti asosida Ma’lumot			
Xizmat ko‘rsatishdan olingan sof foyda			
Daromad solig‘idan oldingi foyda			
Sof foyda			

Balans foydasi \_\_\_\_\_

Rahbar/Moliya masalasi bo‘yicha o‘rinbosar \_\_\_\_\_ Bosh buhgalter\_\_\_\_\_  
M.O‘.

Ishtirokchi moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (balans) nusxalarini, hisobotlarni elektron shaklda qabul qilinganligi to‘g‘risida Davlat soliq inspeksiyasi (xorijiy yuridik shaxslar bo‘yicha boshqa vakolatli organlar) tasdiqlagan holda ilova qilishi shart.

**Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlarini taqdim etish tajribasi haqida  
MA’LUMOT**

*Oxirgi sakkiz yil davomidagi ma’lumotlar*

<i>Nº</i>	<i>Nomi</i>	<i>Tashkilot nomi, manzili va aloqa ma’lumotlari</i>	<i>Ishlash sanasi</i>	<i>Eslatma</i>

Imzolar:

Mas’ul hodimning F.I.O va imzosi \_\_\_\_\_

Rahbarning F.I.O va imzosi \_\_\_\_\_

Sana: «\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2022

**TEXNIK TAKLIFLARGA MUVOFIQLIK JADVALI**

<b>№</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Taqdim etilgan xizmat (Ha / Yo‘q)</b>	<b>Eslatma</b>
1	Shoshilinch tez-tibbiy yordam	(Ha / Yo‘q)	
2	Ambulator poliklinika yordami	(Ha / Yo‘q)	
3	Ambulator poliklinika yordami bo‘yicha dori ta’mnoti (sug‘urta summasining 20%);	(Ha / Yo‘q)	
4	Statsionar davolanish;	(Ha / Yo‘q)	
5	Shoshilinch stomatologik yordam (sug‘urta summasining 15%)	(Ha / Yo‘q)	
6	Shifokorni uyga chaqirish	(Ha / Yo‘q)	
7	Emlash	(Ha / Yo‘q)	
8	Tibbiy ko‘rik (yiliga 1 marta)	(Ha / Yo‘q)	

Imzolar:

Mas’ul hodimning F.I.O va imzosi \_\_\_\_\_

Rahbarning F.I.O va imzosi \_\_\_\_\_

Sana: «\_\_\_\_» 2022